
Xotin -qizlarga yaratilgan imkoniyatdan foydalanib...

□Ishsiz va tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

□Tumanimizda bugungi kunda ayollarimizni ulug'lash, e'zozlash tamoyiliga asoslanib, yeo'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida tumanimizda tadbirkor xotin-qizlar safi kengayib borayotgani quvonarli.

☞"Qo'rg'oncha" MFY xotin qizlar faoli X. Usmonova tomonidan bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani tahsinga loyiqdir.

☞Xususan, MFY xotin qizlari tomonidan ishsiz ayollar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kredit asosida tikuvchilikni yo'lga quyib ishlab chiqarish sexi tashkil etilmoqda.

□Oramizda kasbi ortidan nafaqat oilasiga, balki boshqalarga ham naf keltirayotgan, ularning ko'nglini topib, mushkulini oson qilayotgan insonlar juda ko'p.

□Rishton tumanidagi Qo'rg'oncha mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Gavxaroy Mamaziyaeva ana shunday kasb egasi. U bugun mahallasining faxriga aylanib bormoqda.

☞Gavxaroy Mamaziyaeva "Ayollar daftari"ning 1-toifasida turgan o'zi singari ishsiz xotin-qizlarni atrofiga jamladi. Tikuvchilikni yo'lga quyib ishlab chiqarishni rivojlantirdi. Qisqa fursatda faoliyatini kengaytirib, mahalladagi ishsiz xotin qizlarni ish bilan ta'minlashni maqsad qildi.

2022-09-14 08:30:01